



## TILNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI, MADANIYAT VA TAFAKKUR BILAN BOG'LIQLIGI

**Kaxarova Iroda Sidikovna**

**O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti**

**Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasida dotsenti,**

**filologiya fanlari doktori (DSc)**

**Email: [iroda.kaharova@mail.ru](mailto:iroda.kaharova@mail.ru)**

Jahon xalqlari tilida olamning lisoniy manzarasini emotsional, modal, ekspressiv, intensiv munosabatlar orqali ifodalashga, ijtimoiy-psixologik holatlarni baholashga, obyektiv haqiqatni tushunish va tushuntirishga xizmat qiluvchi alohida leksik birliklar mavjudki, til – tafakkur – hissiyot kesimida shakllangan bunday alohida so'zlar emotiv, onomatop va modal so'zlar deb ataladi. Ularni ingliz va o'zbek tillari tizimi qiyosida o'rganish til tizimining sathlariga tegishli tuzilmalarning shakllanishi va pragmatik ifoda xususiyatlarini aniqlash imkonini berishi jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida alohida so'z turkumlarining morfologik, fonostilistik, semiotik va stilistik holatlarda namoyon bo'ladigan pragmatik xususiyatlari, tuzilishining konseptual-kognitiv, derivatsiyasining semantik va sintaktik ko'rinishlari, kognitiv-pragmatik kategoriyalariga doir tadqiqotlar goh qardosh, goh noqardosh tillar doirasida amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur lisoniy birliklarning ingliz hamda o'zbek tillaridagi kategorial belgilari va maqomini qiyosiy tadqiq qilish, ularning matn strukturasi bajaradigan vazifalari orasidagi o'xshashlik va farqlarni ochishga qiziqish kuchayib bormoqda. Alohida so'z turkumlarining kognitiv sharoitida namoyon bo'ladigan lingvopragmatik xususiyatlarini bir-biridan uzoq ingliz va o'zbek tillari doirasida qiyosiy o'rganish ularning tabiati, lisoniy maqomi, derivatsion-kognitiv, pragmatik xususiyatlari va badiiy asarlar matni doirasida faollashadigan vazifalari, ma'lum ma'noni ifodalash hamda axborot yetkazish borasidagi imkoniyatlarini asoslashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlil dolzarb ilmiy tadqiqotlar qatorida lingvistik izlanishlarning ham ilmiy asoslarini mustahkamlashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. "Bu borada O'zbekistonda amalga oshirilayotgan e'tiborga molik ishlar, xususan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat, san'at va adabiyot sohalarini izchil rivojlantirish ... davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangani..." [1] fanimiz oldiga tadqiqotlarni jahon andozalari darajasiga ko'tarish majburiyatini qo'yadi. Bu esa o'zbek tilshunosligining jahon tilshunosligi bilan aloqadorlikda rivojlanishini ta'minlash, milliy ma'naviyatni yuksaltirish, yosh avlodni dunyo madaniyati durdonalari bilan tanishtirish imkonini beradi. Bu borada lug'aviy ma'no kasb etmasa-da, semantik xususiyat, morfologik

ma'no va shakl, sintaktik hamda stilistik vazifa kasb etishi, yasalishga asos bo'lishi, otlashishi, grammatik o'zgarishi jihatidan ajralib turadigan undov, taqlid, modal so'zlarning til va nutqdagi o'rnini va rolini ko'rsatish zarurdir. Bu orqali tilshunoslikda idrokiy-kognitiv model, pragmatik mexanizm va modellar tadqiqini rivojlantirishga erishish mumkin.

Olimlar faraz qilishlaricha, inson bundan bir necha yuz ming yil oldin so'zlasha boshlagan. Tilning umuman qachon paydo bo'lganligini bilish mumkin bo'lmasa ham, kishilik jamiyatining paydo bo'lishidagi inson hayotining muayyan shart-sharoitlari haqidagi ilmiy xayollarga asoslanib, tilning kelib chiqishi masalasini to'g'ri yoritishga qaratilgan katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Hozirda tilning kelib chiqishi to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi nazariyalar mavjud bo'lib, ular bir-biri bilan kurashib keladi. Bu nazariyalarning birinchisi ijtimoiy nazariya, ikkinchisi individual nazariya deb ataladi. Individual nazariyaning eng ko'p tarqalgan turlaridan biri ovozga taqlid nazariyasi bo'lsa, ikkinchisi undov nazariyasidir.

Ovozga taqlid nazariyasi kishilarning o'z atrofidagi narsalar chiqargan ovoziga taqlid qilishi natijasida dastlabki so'zlar, buyumlar nomlari paydo bo'lgan deb hisoblaydi. Undov nazariyasi tarafdorlari tildagi barcha so'zlar kishilarning ichki tuyg'ulari, qahr-g'azablari, his-hayajonlari, ixtiyorsiz baqirishlari natijasida paydo bo'lgan, deb da'vo qiladilar. Tilning kelib chiqishi to'g'risidagi ana shunday nazariyalardan yana biri imo-ishora nazariyasidir. Bu nazariya tarafdorlari tovush tili paydo bo'lguncha insonlar bir-birlari bilan imo-ishora orqali aloqa qilishgan, deb da'vo qiladilar. Nemis olimi V.Vundt eng birinchi bo'lib bu nazariyani asoslashga uringan. Akademik N.Ya.Marr shu tariqa kishilarda mehnat qilish qobiliyati paydo bo'lguncha, ular mehnat qurollarini yaratgunga qadar odamlarning tovush tili bo'lmasdan, "imo-ishora tili" orqali aloqa qilganlar, deb isbot etishga harakat qiladi. Yana bir boshqa toifa olimlarining faraz qilishlaricha, mehnat, ibtidoiy mehnat qurollarini yasash odamlar a'zolarini asta-sekin juda uzoq davrlar mobaynida takomillashtirib, til ham tafakkurning rivoj topishida beqiyos ahamiyat tutgan. Demak, mehnat qilish, mehnat qurollarini yasash jarayonida odamlar borgan sari uyushib boradi. Natijada kishilik jamiyati vujudga keladi. Odamlar jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida bir-biriga nimadir deyish ehtiyoji tug'iladi. Bu zaruriy ehtiyoj esa tilni yaratadi.

N.I. Ashmarinning taqlid so'zlarga doir asarlarida tilning kelib chiqishini taqlid so'zlarga bog'lash tendensiyasini ilgari suradi. Uning fikricha, til boshlang'ich davrlarda faqat mimemalardan tashkil topgan bo'lib, keyingi davrlardagina undan nutqning artikulyatsiyalashgan tovushlari kelib chiqqan. Mimemalardan nutq tovushlari paydo bo'lguncha til nutq tovushlarini va boshlang'ich so'zlarni tanlash va to'plash davrini boshidan kechirgan [3].

A.G. Spirkin "Tilning kelib chiqishi va uning fikrlashni shakllantirishdagi roli" asarida "nutqning manba materiali", "tovushlar va taqlidlar o'rtasidagi bog'liqlikni shakllantirish mexanizmi" haqida gapirib, "haqiqiy dunyo obyektlari va hodisalarining nomlari bitta prinsipga emas, balki bir nechta prinsipga asoslangani, ibtidoiy odam o'zaro muloqotga bo'lgan haqiqiy hayotiy ehtiyojni qondirish uchun unga ruxsat berilgan barcha imkoniyatlardan foydalangani"ni qayd etadi.

Taniqli tilshunos V.Vundtning "Xalqlar psixologiyasi muammosi" asarida tilning kelib chiqishi muammosiga to'xtalib, bir tomondan, tovush taqlidi, boshqa tomondan, tovush metaforasi qanday qilib tilning kelib chiqishiga oydinlik kiritishi mumkinligi haqidagi

savolga aniqlik kiritadi. Ushbu kitobda tovush va uning ma'nosi o'rtasida bog'liqlik haqidagi gipoteza ham muhokama qilingan.

Bizningcha ham, inson nutqida mustaqil va yordamchi so'zlardan oldin taqlid, keyin undov hamda modal so'zlar paydo bo'lgan. Bu ularning atash ma'noga ega emasligidan ham bilinib turadi. Ilk insonlar o'z maqsadini bir-biriga anglatishda ishora qiluvchi so'zlardan foydalanganlar. Keyinchalik bu kabi leksemalarga grammatik qo'shimchalar qo'shish tufayli boshqa so'zlar (ko'proq ot, fe'l, sifat) yasalgan. Asrlar o'tishi davomida esa bu so'zlar sayqallanib, ayrim tovush o'zgarishlariga uchragan. Masalan, ikki tekis sirtning bir-biri bilan urilishi oqibatida hosil bo'ladigan tovushni ifodalash uchun ishlatiladigan "to'q-to'q" so'zidan "to'q+illa" fe'li, "to'q+moq narsa oti yasalgan.

Demak, taqlidiylik hayotda harakatni yuzaga keltiruvchi vositaga aylangan. Shu asosda ko'p narsa-hodisa, harakat nomlari taqlid so'zlardan hosil bo'lgan.

Taqlidiylikning hayotda harakatni yuzaga keltiruvchi vositaga aylangani bolalar o'yin faoliyatida yanada yorqin ko'rinadi. Buni o'zbek bolalar o'yinlarining katta bir qismi taqlidiy so'zlar orqali nomlanishidan bilsa ham bo'ladi. "Jig-jig", "duk-duk", "paq-puq", "po'q-po'q", "to'p-to'p", "jirtak", "zum-zum" kabilar shular jumlasidandir. Bu xildagi o'yinlarda harakat u yoki bu hodisaga taqlid zamirida voqelikka aylanadi" [4].

Bolalar uch yoshgacha o'z nutqiga ega bo'ladi. Masalan, ular qo'yni ko'rsa, "ba...a (barra, qo'y); mashinani ko'rsa "di-dit (du-dut, bi-bib) deya, o'sha narsa-hodisalarning ovozigacha muvofiq ularni nomlaydilar. Mushukni "miyov", tovuqni "titi", xo'rozni "qu-qu" deb ataydilar. Shu tariqa ayrim parranda, qush, hayvon yoki aniq narsalarning tovushlariga taqlidiy xarakterda bu kabi so'zlar paydo bo'lgan. Bola tovushlarni har xil qabul qilganligidan bu kabi taqlidiy so'zlarning ma'lum qismi o'z sinonimik qatorini ham hosil qilgan. Masalan:

av-av//ba-ba//hav-hav – it;

di-did/bi-bib – mashina.

Birinchi qatorda it tovushiga nisbatan qo'llanadigan taqlidiy so'zlar sinonim sifatida keltirilgan. Biroq uning "vov-vov" yoki "hov-hov" shakllari ham bor:

Oqqina kuchuk *hov-hov* etar,

Qorni to'ysa – yumalab yotar.

Ko'rinadiki, taqlidiy so'zlar bu o'rinda sinonimik qator hosil qilmoqda. Qolaversa, tovushlarning bu xilda taqlidiy so'zga o'sib chiqishi – bola ruhiy faoliyatidagi rivojlanishning muhim qirrasini hisoblanadi [4]. Shuningdek, taqlid so'zlar uchun tanlangan tovushlarning o'zaro ohangdoshligi, jaranglilik kuzatiladi. Bu tovushlar oson idrok etiladi va yengil talaffuz qilinadi.

Taqlidiy so'z shunchaki so'z bo'lmay, balki ma'naviy ehtiyoj tufayli ham qo'llanadi. Garchi taqlidiy so'zlar ma'no anglatmasa-da, inson uchun xilma-xil ma'nolarni o'qish, idrok qilish, ifodalash vositasi bo'lib keladi. Taqlidiy so'z ifodalagan tushuncha inson tafakkurining nishonasiga aylanadi.

Umuman aytganda, inson bolalikdan nutq tovushlarini shunchaki o'zlashtirmaydi. Tovushlar ohangdorligi, shu ohangdoshlikning mantiqan omuxtalasha borishi – ularni o'zlashtirish va idrok etishni ma'naviy zaruriyatga aylantirib qo'yadi. Bu esa, o'z navbatida, nutq shakllanishida o'zgacha bir jarayon tusini oladi. Aniq qilib aytganda, til shakllanib, ong

rivojlana boradi. Taqlid soʻzlar mana shundan kelib chiqib, bolalar uchun yaratilgan folklor namunalarining deyarli barchasida alohida oʻrin tutadi. Masalan, bolalarni erkalovchi motivdagi erkalamalarning “Ha, doʻrsa, doʻrsa, doʻrsa”, “Dikki-dikki, dikkosi”, “Ha, kishta, kishta, kishta”, “Kishtala, kishtala, kishtala” kabi anʼanaviy satrlari bevosita taqlidiy soʻzlar bilan boshlanadi. Ular bir, ikki, uch yashar bolalargagina moʻljallangan boʻladi [4].

“Ho, kishma, kishma, kishma” – qizaloqlar oʻyining nomi. Unda shunday satrlar uchraydi:

Saqich bersam oladi,

Tor ogʻziga soladi,

*Qars-qars* chaynaydi.

Ushbu qoʻshiq matnida saqich chaynaganda ogʻizdan chiqadigan “qars-qars” tovushi ifoda etilmoqda. Bundan tovushga taqlid soʻzlarning nimaga tegishli (masalan, saqichga), qayerdan chiqishi (ogʻizdan), qanday harakat (chaynash) natijasi ekani farqlanishi anglashiladi. Taqlid soʻzlar koʻpincha takror qoʻllaniladi.

Taqlid soʻzlarning bolalar erkalama qoʻshiqlarida qoʻllanishi boshqa xalqlar folklorida ham kuzatiladi. Masalan, ruslarda uning “Busiki, musiki, dusiki” varianti uchraydi. Bunday boshlanma satrlar taqlidiy soʻzlar hosilasi boʻlsa-da, qolganlari maʼnoli soʻzlardan tuzilgan boʻladi.

“Toʻpchiq” – qizlarning jundan tugulgan yoki lattadan tikilgan oʻyinchogʻining nomi. Ular yaxshi sakragan, qizaloqlar toʻpchiqlar orqasidan yugurishgan. Shunda quyidagi qoʻshiqni aytganlar:

Toʻpim *toʻp-toʻp* etadi,

Tepsam qochib ketadi.

Derazani sindirib,

Meni hayron etadi.

Ushbu bolalar oʻyin qoʻshigʻida toʻpdan chiqadigan “toʻp-toʻp” tovushi taqlid soʻz sifatida keltirilgan.

Bolalar, odatda, Qizilishton nomli qushning tumshugʻini daraxtga tirab ajabtovur toʻqirlatishini koʻrib quyidagi qoʻshiqni aytadilar:

*Taqa-tuv, taqa-tuq,*

Muncha qiladi *chuq-chuq.*

Muncha qilasan *chuq-chuq,*

*Taqa-tuq, taqa-tuq.*

Bolalar tabiatdagi har bir tovushdan oʻzlaricha zavqlanganlar. Masalan, ular chillakimomo uyasini koʻrishi bilanoq unga taqlid va tasviriy soʻzlar vositasida shunday murojaat qilishadi:

*Lu-lu-lu, lu-lu-lu,*

*Shululum, bululum.*

Uyingga mehmon keldi,

Kaltagingni olib chiq.

Quyidagi aytimda qarg'aning tovushiga taqlid so'z keltirilgan:

Qarg'a sayrab "qog" deydi,

Mening vaqtim "chog" deydi.

Ko'rinyaptiki, bolalar qushlar ta'rifidagi hukmlagichlarning aksariyatini taqlidiy so'zlar negizida bunyodga keltirishgan. Bolalar qaysi qushni ko'rsalar, uning ovoziga taqlid qilib o'sha qushga o'z poetik munosabatlarini ko'rsatganlar. Bunday poetik munosabat, odatda, taqlidiy so'zdagi tovushlarning alliteratsion garmoniyasidan bolalarcha zavqlanish zamirida yuzaga kelgan. Shu sababli, bolalar g'ozni ko'rdi deguncha bunday deyishadi:

G'oz qiladi – *g'oq-g'oq*.

Man chiqardim – *pag'-pag'*,

G'oz kelmadi – *g'aq-g'aq*,

Kel buyoqqa – *g'aq-g'aq*.

To'rtinchi qatordagi "g'aq-g'aq" tasviriy so'zi orqali bevosita g'ozning o'ziga ishora qilinmoqda. Quyidagi misralarda esa kaklik sayrashiga taqlid bor:

Bedanam uchdi *pit-pildi*,

Sabziga tushdi *pit-pildi*.

Ushbu misralarning birinchisida bedana qushning sayrash ovoziga nisbatan ishlatiladigan taqlid so'z keltirilgan bo'lsa, ikkinchisida uning nomiga chiqaradigan sayroq tovushi orqali ishora qilinmoqda. Xuddi shu o'rinda taqlidiy so'zlarning ishora qiluvchi so'z ham ekani oydinlashadi.

Xo'roz ta'rifidagi hukmlagichda uning "qu-qu" deb ovoz chiqarishiga qarab boshqa parrandalardan farq qilishi yoritilmoqda. Bu taqlid so'z xo'rozga epitet qilib ham keltirilmoqda. Natijada sifatlovchi sifatlanmish tarkibli so'z birikmasi yuzaga kelmoqda.

Qu-qu, qu-qu xo'rozim,

Toji tillo xo'rozim.

Bunda "qu-qu, qu-qu" – sifatlovchi, xo'rozim – sifatlanmish vazifasida kelgan.

Demak, taqlidiy so'zlar bolalar hukmlagichlarda asosiy poetik yukni tashiydi. O.I.Kapitsa taqlidiy so'zning ayrim qush yoki hayvonlarga nom vazifasini o'tayotgani hodisasini ko'rsatib o'tgan. Masalan, po'pishak (popishak), chumchuq (churq-churq so'zidan), qurbaqa (qurr-baqa). Bularda o'zbek taqlidiy so'zlari qatnashgani ko'rinadi:

Qurbaqajon *vaq-vaqa*,

Ko'zing nega bundaqa?

"Yashinmachoq" ("Bekinmachoq") o'yinida yashirinib bo'lgan bolalar toparmonga shu xususda ogohlantiruvchi signal berishadi. Bunda ko'pincha "puq" yoki "pub" deb, taqlid so'z orqali signal berilgan:

Oq sovun, ko'k sovun

O'rtasi atir sovun.

Pub-pub, pishdi,

Pub-pub pishdi.

Bolalarning “qiqillama” – qichqirmachiq qo’shiqlari ko’proq ikki misra (bir bayt)dan iborat bo’lib, uning birinchi misrasi, albatta, taqlid so’zlar takroridan tuziladi. Ular baqirib-chaqirib aytiladi:

Laka-lak, lak-laka-lak,

Shamolda uchdi kapalak.

Yoki:

Tarri-tarri-tarri-tur,

Kelayotir taraktur.

Quyidagi parchada bahor yomg’iri va momaqaldiroq tasviri taqlid so’z vositasida ifoda etilgan:

Keldi bahorning yomg’iri,

Na’ma-yu *sharru sho’r* qilib,

Shu’lasini *shaqirlatib*,

Chaqmog’ini *chaqirlatib*.

Boychechak haqidagi qo’shiqda “Baka-baka-bum boychechak” deyiladi. Bunda ‘baka-baka-bum’ so’zlari nog’ora usullarini ifoda etgan.

Bolalar o’yin folklorida “Guldur-gup” o’yini ko’p tarqalgani ma’lum. Uning ikkinchi nomi “Jildir-jip” yoki “Hapini” deb yuritiladi. Uning nomida, poetik matnida taqlidiy so’zlar o’rni ko’rinib turadi:

*Dim-dim-dim*,

O’raga ko’mdim.

Gapirganing og’ziga,

Bir *shapaloq* urdim.

Yoki:

Jim-jim, jimma-jim,

Og’izchangni darrov yum.

Nikolayni poezdiday,

Qilma *taqa-tuq, bum-bum*.

Poezdning bir zayldagi “taqa-tuq”, “bum-bum”i butun “guldur-gup” ohangiga aylangan. Bu ohangda kesatliq ham bor. Qizig’i shundaki, taqlidiy so’zlar leksik ma’noda ega bo’lmasa-da, bu o’rinda uslubiy ma’noga egaligi ko’rinib turibdi. Demak, Nikolayning poezdi eski, shalog’i chiqqanligidan “taqa-to’q” yoki “bum-bum” deb ovoz chiqaradi.

Umuman aytganda, “Tiri-tiri // tiraktor”, “Tapar-tupir qayrag’och”, “Qaldirhoch g’och-g’och”, “Olmacha do’m-do’m” kabi taqlidiy so’zlar orqali boshlanadigan bolalar qo’shiqlari o’ziga xos an’anaviylik kasb etgan.

Xullas, taqlid soʻzlar alohida soʻz turkumlaridan biri boʻlib, ovozga (tovushga) va obraz hamda tasvirga taqliddan hosil boʻladi. Ular odam va tabiat hodisalari ovozigga, narsalar va hayvon-parrandalar tovushiga taqliddan kelib chiqadi. Taqlid soʻzlar otlashish xususiyatiga egaligi uchun ismlar tarkibiga kiradi. Taqlid soʻzlar yasalmaydi, lekin yasalish uchun asos boʻla oladi. Taqlid soʻzlarning sheva variantlari ham bor. Masalan, “chaq-chaq” Buxoro shevasida “suhbat”ni anglatadi.

Taqlid soʻzlar maʼnoni umumlashtirish xususiyatiga ham ega. Masalan, “Chaq-chuq” deganda bodom, pista kabilarning jami tushuniladi.

Bolalar gʻashlanib yigʻlaganda ularni ovutish uchun aytiladigan ovutmacholarda “vuy-vuy”, “voy-voy”, “hoʻbba-hoʻbba”, “obov-obov” kabi undov soʻzlar takror qoʻllangani kuzatiladi.

Vuy-vuy shuginani kim urdi?

Vuy-vuy shuginaga kim lab urdi?

Umuman aytganda, ovutmacholarda undov soʻzlar (his-hayajonni ifodadovchi soʻzlar) yo takror, yo juftlashgan takror sifatida koʻp qoʻllanishi kuzatiladi. Masalan:

Hoʻ-ba, hoʻ-ba, nega yigʻlaysan?

Hoʻ-ba, hoʻ-ba, big'-big'lama.

Bu oʻrinda “big'-big'lamoq” yigʻlamoq feʼliga sinonim sifatida qoʻllangan.

*Obov-obov* qizginam,

Mendan qolar izginam.

*Obov-obov* shugina obov,

Jonim – obov, qizginam obov.

Xalqimizda uchraydigan bu kabi undov soʻz “Oʻzbek tili izohli lugʻati”ga hali kiritilmagan. Bunday undov soʻzlarning qoʻllanishi uslubiga koʻra ikkiga boʻlinishi ayyonlashadi.

1. Ogʻzaki uslubda qoʻllanadigan undov soʻzlar.
2. Yozma adabiy tilda qoʻllanadigan undov soʻzlar.

Masalan, “balli” undov soʻzi adabiy tilga xos boʻlsa, “bale” undovi shevaga xosdir.

Bacham, bacham, jonim bacham,

Yigʻlamagin jonim bacham.

Qoringinang toʻymadimi?

Ho balle, balle, ho balle.

Maʼlumki, “balli” soʻzi, odatda, biror javobni maʼqullash, uning toʻgʻriligini ragʻbatlantirish uchun ham ishlatiladi. Jumladan:

Kakku koʻkka uchdimi?

Baqa koʻkka uchdimi?

Baqa koʻlga tushadi, balli.

Ilon uzum yeydimi?

Ilon uzum yeydi

E...e... Ahmoq shunday deydi.

Bu aytim “aldanmahoq chandish” deb yuritiladi. Ba’zan bunday aytimlarda tasdiqni bildiruvchi “ha” modal so’zi qo’llanadi.

Ba’zi hollarda “kel”, “qo’y” kabi fe’llarning undov so’z sifatida qo’llanishi ko’zga tashlanadi:

Yig’lama, bas, darding olay.

Qo’y yig’lama, jon o’g’lim,

Oppog’im, bag’rim o’g’lim.

Bu misralarda “bas”, “qo’y” fe’llarining undov so’z bo’lib kelib, da’vatni ifodalayotgani ko’rinmoqda.

Yig’lama, o’g’lim, o’g’lim,

Voy-dod, nega kelmaydi o’lim.

Bu misralarda “voy” va “dod” undovlari juft holda kelishi natijasida ta’sirchanlik kuchaytirilmoqda.

Undov so’zlar nafaqat insonlarga balki hayvon va qushlarga ham ishlatiladi. Xususan, bu bolalarning qo’riqchilik qo’shiqlarida yorqin kuzatiladi:

Ey, hoy gala, ey, hoy gala,

Chumchuq keladi bir gala.

Mening bog’im kichkina,

Ho’, katta bog’larni tala!

Hala-yo, hala-yo!

Katta polni tala-yo.

Bunday aytimni bolalar g’arq pishgan uzumdan chumchuqni quvganlarida qo’riqchilik qo’shig’i sifatida ijro etgan. Ko’rinyaptiki, yuqoridagi badiiy matnda “ey”, “hoy”, “huv” kabi murojaatni bildiruvchi undov so’zlar hamda “gala” tasviriy so’z qo’llangan. “Hala-yo” so’zi ham poetik da’vatni yuzaga keltirgan. Shunday qo’shiqlarda yana “Ho, huv gala, ho, huv, gala”, “Haya huva” deganlar. Yoki:

Hay-hay, chumchuq, jajji qush,

Shoxda turmay, pastga tush.

Bu misralarda chumchuqqa qarata insonlarga ishlatiladigan “hay-hay” undovi ishlatilgan. Bu undov ko’p uslubiy ma’noga ega bo’lib, bu o’rinda “yo’lidan adashtirish” ma’nosida ishlatilgan.

Kimki qachon kaltakesakni ko’rsa, unga qarata shunday deydi:

*Tuf-tuf, tuf,*



Man – gul,

San – pes.

Bitta poetik matnda alohida soʻzlar turkumiga xos undov, taqlid, modal soʻzlar baravar qoʻllanib kelaveradi:

Ha-yu, chittigul, ha-yu, chittigul.

Doʻpir-doʻpir ot keldi,

Chiqib qarang kim keldi.

Ha, mayli-yo, ha mayli,

Otlarning qadam (oyoq) tovushi, odatda, “doʻpir-doʻpir” yoki “dukir-dukir” (“dukur-dukur”) taqlid soʻzlari vositasida ifodalanadi. Lekin nutqda bu tovush baʼzan boshqa jonivorlarga ham qoʻllangani koʻrinadi:

Agʻam-bagʻam tishini koʻrdim,

Yugurganda dumini koʻrdim.

U chopardi *dukur-dukur*,

Quyong ekan – harom oʻlgur.

Ushbu topishmoqda dukur-dukur tovushga taqlid soʻz quyonga nisbatan qoʻllangan. Otga nisbatan baʼzan “tapara-tapar” taqlidi ham ishlatiladi:

Tapara-tapar ot keldi

Ot ustida kim keldi?

Salomlashish, soʻrashish bilan bogʻliq undov soʻzlar ham folklor tilida koʻp uchraydi:

Gʻi-gʻi, ramazon,

Va-allaykum assalom!

Qiqillamalar (qichqirmachoqlar) bolalar ijrochiligining alohida janrlaridan biridir. Bu nom bolalarning qaqqildoq, qiqqildoq davrida yaratgan ikkiliklari uchun tanlangan. Ular baqirib-chaqirib aytiladi. Masalan:

*Taqa-taqa, taqa-tuq,*

Mana bu senga quduq.

Yoki:

Tomdan tushdim *tap* etib,

Ovqat yedim *xap* etib.

N.Aliboyeva: “Taqlidlarni baholashga tillarning shakllanishi, ibtidoiy holatlari, unda soʻz turkumlarining oʻrni va mavqei, rivojlanishi, bu rivojlanish tendensiyalarining taqlidlarda namoyon boʻlganlik holati kabilardan kelib chiqqan holda munosabatda boʻlish istiqboldagi vazifalardandir” [2] deganidek, bu muammo oʻz yechimini kutmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik fani tilda boʻlayotgan barcha oʻzgarishlarni atroflicha oʻrganadi. Har qanday tilda boʻlayotgan hodisa esa, oʻz navbatida, ehtiyoj tufayli

yuzaga keladi va rivojlanadi. Jamiyat o'z taraqqiyotini ta'minlash uchun hamma davrda ilm-fanni rivojlantirish va uning muammolarini tadqiq qilishga alohida e'tibor berib kelgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotni xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari» mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi. 2018-yil 7-avgust / <https://www.xabar.uz>.
2. Алибоева Н.М. Ўзбек ва инглиз тилларида тақлид сўзларнинг қиёсий тадқиқи: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Андижон, 2021. – 115 бет.
3. Ашмарин Н.И. Морфологических категориях подражаний в чувашском языке. – Казань, 1928. – Б. 128.

Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 230.

